
Rishton tumani madaniyat markazida “Uch avlod uchrashuvi”

Bugun tuman madaniyat markazida “Uch avlod uchrashuvi” tashkil etildi. Unda Viloyat mahalla va nuroniylar bo‘lim rahbari o‘rinbosari Z. Rahmonov, tuman hokimi o‘rinbosari Z.Umarov, tuman nuroniylar kengashi rahbari T.Abdurahmonov, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i X. Xojixonov, mehnat faxriysi X. Isaqova hamda keksalik gashtini surib kelayotgan faxriy nuroniylar va o‘quvchi yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirga taklif etilganlar o‘zlarining bosib o‘tgan hayot yo‘lini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish orqali ajdodlarimizdan qolgan muqaddas oilaviy an‘ana va qadriyatlarni asrash ustuvor vazifaga aylanishini hamda Zahiriddin Muhammad Boburning tavalludining 540 yilligi munosabati bilan yoshlarga o‘z ezgu tilaklarini bildirdilar.

2023-02-14 17:49:06